

**BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARI FIKRLASH QOBILIYATINI  
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI**

**Otamurodova Aziza Sultonmurodovna**

*Urganch innovatsion universiteti axborot-resurs markazi mudiri*

[atamuratova79@mail.ru](mailto:atamuratova79@mail.ru)

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, jamiyatda sodir bo'layotgan demokratik o'zgarishlar yangi jamiyat barpo etish yo'lidan dadil yetaklovchi, harakatlantiruvchi ichki kuchga aylanmoqda. Respublikamiz mustaqillikka erishgach, yangi ijtimoiy tuzumning maqsadi, vazifalariga mos keladigan va uni amalga oshiradigan kadrlarni tayyorlash ehtiyojidan kelib chiqib, ta'lim va tarbiya tizimini yangilash vazifasi qo'yildi. Shu sababli ta'lim ("Ta'lim to'g'risida"gi qonunimizda ham ta'kidlanganidek) davlatimiz ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Har bir bolaning dunyoga kelishi, faqat tabiiy biologik jarayon emas, balki u ma'lum qobiliyat kurtaklari bilan tug'iladi. Lekin u inson, shaxs sifatida oilada, shuningdek, turli jamoalardagi faoliyatda, xususan maktabda ijtimoiy munosabatlar orqali shakllanadi.

Har bir ijtimoiy tizimda insonning ma'naviy yuksalishini ta'minlovchi ta'lim-tarbiya, ma'naviyat va ma'rifat kabi tushunchalar mavjud bo'lib, ular pedagogika fanidagi o'zgarishlarni jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda atroflicha o'rganishni taqozo etadi.

Pedagogik g'oyalarning tarqalishida Qadimgi Yunonistonning mashhur faylasuflarining hissasi katta. Ular o'z faoliyatida yoshlarni o'qitish hamda tarbiyalash vazifalariga mos ravishda ta'lim-tarbiya nazariyasini ishlab chiqdilar.

Yunonistonda pedagogikaning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan mutafakkir olimlardan biri Demokrit falsafa, matematika, fizika, biologiya, tibbiyot, ruhiyat, san'atga doir asarlar yaratib, inson shaxsining qaror topishi uning tabiati va tarbiyasiga bog'liqligiga urg'u berib o'tgan. Agar inson o'qimasa mahorat va donishmandlikka erisha olmaydi, deb hisoblagan.

Abu Nasr Forobiy insonning qadr-qimmatiga, uning aql-zakovatining ijodiy va bunyodkorlik kuchiga yuksak baho beradi. Inson Forobiy uchun shunchaki biologik bir mavjudot emas, u o'z mohiyatiga ko'ra, aql-idroki tufayli hayvonot dunyosi chegaralaridan tashqariga chiqadi, zakovati, mehnati bilan bir qatorda uni ijtimoiy jihatdan faol qilib qo'yadi.

Abdulla Avloniyning ijodiy faoliyatida maktab va maorif, ta'lim-tarbiya masalalari alohida o'rin egallaydi. Avloniy "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Maktab gulistoni", «Turkiy guliston yoxud axloq» asarlarini maktab o'quvchilariga bag'ishlaydi [1:5-15].

Yosh avlodni insonparvarlik ruhida tarbiyalash – V.A.Suxomlinskiy pedagogik ijodi va faoliyatining yuragi. Pedagog insonparvarlik deganda chuqur g'oyaviy e'tiqodni, ijtimoiy faollikni, vatanparvarlikni, mehnatga muhabbatni, ijodkorona hayot kabilarni tushunadi. V.A.Suxomlinskiyning pedagogik faoliyati va ta'lim-tarbiya masalalariga qaratilgan bir qancha asarlari bolalarni komil inson qilib tarbiyalashga qaratilgan. Uning "Bolalarga jonim fido" asarida bolalarni fikrlash faoliyatini quyidagicha ta'riflaydi: "Bola fikr qiladi ... Bu esa uning miya yarim sharlari po'stlog'i neyronlarining ma'lum bir guruhi atrof-dunyodagi obrazlar (manzaralar, predmetlar, voqealar, so'zlar)ni qabul etadi-da, mayda-mayda nerv hujayralari bo'ylab aloqa kanallaridagi singari signallar yuboriladi. Neyronlar bu informatsiyani ishlaydi, uni sistemaga soladi, guruhlarga ajratadi, solishtiradi, taqqoslaydi, bu vaqtda yangi informatsiya olinadi, uni yana qayta-qayta qabul etish, "ishlash" kerak bo'ladi. Tobora yangi-yangi obrazlarni qabul etib va axborotni "ishlab" ulgurish uchun, neyronlarning nerv energiyasi benihoya qisqa vaqt ichida obrazlarni qabul etishdan ularni "ishlash"ga o'tadi.

Bola oldida ko'rsa bo'ladigan, real obraz turgandagina, yoki so'zlab yaratilgan obrazni bola go'yo ko'rib, eshitib, sezib turganday bo'lgan taqdirdagina fikrning fikrlash mohiyati bo'lgan ishdan ishga o'tish mumkin bo'ladi.

Fikr ko'rgazmali obrazda shu obraz haqidagi ma'lumotni "ishlash"ga o'tishi uchun, bola miyasining tabiati, uning aqli fikr manbai oldida – ko'rgazmali obrazlar ichida, avvalo tabiat qo'ynida tarbiya ko'rishni talab qiladi" – deb ta'kidlab, boshlang'ich sinflarda bolalarni fikrlash qobiliyatini o'stirishni tabiat qo'ynida olib borish ko'proq samarali bo'lishini o'zining amaliy tajribalari orqali isbotlagan [2: 31].

Shuni aytish kerakki, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim inson hayotida birinchi ijtimoiy bosqichlardir. Chunki boshlang'ich ta'lim bolalarning yoshligidanoq ularning ongi, irodasi, sezgisiga yo'nalish beradi. Kattalarning g'amxo'rligida bola o'z hayotiy tajribasini to'plab boradi, o'zini o'rab turgan atrof-muhitdagi boshlang'ich oddiy tushunchaga jamiyat hayotidagi bilim va ko'nikmaga ega bo'la boradi.

Bolaning haqiqiy ijodiy izlanuvchan, sofdil va adolatli, mard va olijanob, raxmdil, vatanparvar, mehnatsevar va yaratuvchi bo'lishi uning boshlang'ich ta'lim bosqichida egallagan bilimi va tarbiyasiga bog'liq.

Shunga ko'ra boshlang'ich ta'lim oldida turgan vazifa juda jiddiy ulkan ahamiyatga ega. Boshlang'ich ta'lim bolaning o'z hayotini jamiyat manfaati bilan bog'lab borishi, ichki munosabatlardan ijtimoiy munosabatlarga o'tishi, oldiga qo'yilgan hayotiy maqsadlari esa jamiyat maqsadlari bilan mushtarak bo'lishiga erishmog'i kerak. Yosh avlodni ijodiy izlanuvchan, vatanparvar shaxs bo'lib shakllanishida boshlang'ich ta'lim mas'uliyati alohida ajralib turadi. Jamiyatimiz ma'naviy-siyosiy birligini ijtimoiy tarbiyaning maqsadlariga to'la mos ekanligini belgilaydi.

Ijodiy izlanuvchanlikni shakllantirishning muhim vazifasi tarbiyalanuvchiga o'zining hayotiy individual uslubini, faoliyat va munosabatga kirishishiga yordam berishdan iborat. Bu vazifani hal etish uchun o'qituvchi psixodiagnostik metodika va ba'zi ko'nikmalarga ega bo'lishi hamda axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi rivojlangan bo'lishi zarur. O'quvchilarda ijodiy qobiliyatni shakllantirish uning aqliy faoliyat yuritish uslublarini egallash darajasigagina emas, o'ziga va uni qurshab turgan turg'un munosabatlar tizimiga ham bog'liq.

O'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni shakllanishida ijtimoiy omillar bilan bir qatorda maqsadga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya muhim o'rin tutadi. O'quvchining o'zini-o'zi boshqarishga qaratilgan faoliyat ham muhim omillardan ekanligini esdan chiqarmaslik lozim. Faoliyat deganda o'quvchi shug'ullanadigan turli mashg'ulotlar tushuniladi. O'quvchining bir butun har tomonlama rivojlanishi, borliqqa bo'lgan munosabati uning faoliyati jarayonida tarkib topadi. O'quvchi faoliyatining asosiy turi o'qish bo'lib, unda ijodiy izlanuvchanlikning rivojlanishi ushbu faoliyat turining to'g'ri tashkil etilishi va maqsadga muvofiq yo'naltirilishiga bog'liq [3, 64].

Bizga "Pedagogika" fanini o'rganish jarayonidan ma'lumki, ta'lim – bu o'qituvchi bilan o'quvchilar orasidagi ongli va aniq maqsadga tomon yo'naltirilgan bilishga doir faoliyat bo'lib, uni amalga oshirishdan ko'zda tutilgan maqsad quyidagilardan iborat:

- O'quvchilarga davlat ta'lim standarti orqali belgilab qo'yilgan bilimlar sistemasini berish.

- Matematik bilimlarni berish, o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish.

Ta'lim jarayonidagi bu ikki maqsadga erishish uchun o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga o'rgatilayotgan har bir yangi matematik tushuncha falsafiy, psixologik, pedagogik va didaktik qonuniyatlarga amal qilgan holda tushuntirishni talab etadi. Agar har bir fanni, jumladan, matematika fanini o'qitish jarayonida bunga erishilsa, o'quvchilar ongida bilish deb ataluvchi psixologik jarayon hosil bo'ladi.

Falsafa fanidan ma'lumki, bilish jarayoni – bu jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga va undan amaliyotga o'tish demakdir.

Bu borada akademik Yu.M.Kolyagin “Tafakkur – inson ongida obyektiv borliqning faol aks etishidir” – deb ta'kidlab o'tgan.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, bilish jarayoni – tafakkur qilishga bog'liq bo'lgan jarayon hisoblanadi.

L.S.Vigotskiyning “eng yaqin shakllanish zonasi” haqidagi nazariyasi bolaning tafakkurini uni tashkil etgan ta'lim va tarbiya vositasida shakllanish jarayonida o'rganishning istiqbolli yo'lini ochdi. Bu jarayonning tashkil etilishi bolaning intellektual shakllanish sifatiga sezilarli va bevosita ta'sir etadi. Uning fikri bo'yicha, bolaning tasavvuri rivojlanishi bilimlarni o'zlashtirish jarayonisiz o'tmaydi, faqatgina o'quv axborotlarining to'plami (bilim, bilish) fikrlashni harakatlantiradi, bolalarning fikrini rivojlantiradi.

Pedagogikada V.V.Daviydov va D.B.Elkonin texnologiyalari tomonidan joriy etilgan rivojlanayotgan ta'limni hisobga olgan holda, ta'limning maqsadi bolalar fikrlash faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish, shaxsning har tomonlama rivojlanishiga ko'maklashish, ilmiy bilish usullarini o'zlashtirish sifatida shakllantiradi. Bunda ta'lim mazmuni endi an'anaviy bilim, ko'nikma, malakalarni o'z ichiga olmaydi, balki o'quvchi maqsadga erishishi uchun egallashi kerak bo'lgan bilim va fikrlash usullarini o'z ichiga oladigan vositalar va metodlardan foydalaniladi. Ushbu tizimda ta'lim mazmuni bola rivojlanishi uchun yetarli imkoniyatlarga ega [4; 203].

O'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o'rgatish jamiyat hayotida tub burilishlar amalga oshirilayotgan hozirgi davrda, ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ijodiy fikrlash hammada bor, uni tez-tez qo'llashga harakat qilish kerak, shunda u zerikarli ishni qiziqarli qilishga yordam beradi. Har qanday o'qish mazmunidan qat'iy nazar miya uchun foydalidir, chunki u tasavvurni rivojlantiradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. Musurmonova A. va boshqalar. Umumiy pedagogika (1-qism). //O'quv qo'llanma. – T. 2020. – 5-15 b.

2. Сухомлинский В.А. Болаларга жоним фидо. – Т. “Ўқитувчи”. 1984. – 31 б.

3. Rustamova M.M., Arapbayeva D.K. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik diagnostikasi. // Uslubiy qo'llanma. – T. “Navro'z”. 2016. –64 b.

4. Елови́кова Д.А., Теория обучения: учебно-методический комплекс. – Брянск: РИО БГУ, 2014. 203 с
5. Jumayev M.E. va boshqalar. Boshlang'ich ta'limni o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. 4.1-modul. – T. Nizomiy nomidagi TDPU. 2018.
6. Djanpeisova G.E., Xodjimuratova B.N., Matematik tasavvurlarni shakllantirish. // O'quv qo'llanma. – T. Nizomiy nomidagi TDPU. 2020.